

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA KOMPARATIV IBORALAR TUZILISHINING QIYOSIY TAHLILI

Saparov Salamat Perdebaevich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ayrim iboralarda arxaik, leksik, morfologik va sintaktik unsurlar va shakllar mavjudligi bois frazeologik material tahlili chog'ishtirilayotgan tillarning tarixiy taraqqiyotini o'rganish uchun muhim. Frazelogizmlarda xalqlarning til tarixi, turmush tarzi, milliy o'ziga xosliklari va an'analari aks etganligi sababli ularni o'rganish dunyo tilshunosligida muhim va kengayib borayotgan sohadir [11].

Ayniqsa, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish amaliyotida va tarjima faoliyatida komparativ adyektiv iboralarning (KAI) struktur xususiyatlarini o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. R.A. Budagov ta'kidlaganidek, "frazelogiyadagi tarkibiy va semantik xususiyatlar o'zaro muvofiqlikda amal qiladi, tasnif kontseptual emas, lingvistik bo'lishi uchun barqaror birliklar tasnifi tarkibiy xususiyatlarga ko'ra amalga oshirilishi lozim." [4;16]

Adyektiv iboralarining tarkibiy turlarini konkret faktik materialdan kelib chiqib yoki tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab turli jihatdan tahlil qilish mumkin. Adyektiv iboralarni grammatik tuzilishi, leksik tarkibi va tarkibiy unsurlari orasidagi sintaktik aloqalarning tabiatiga ko'ra farqlash mumkin.

Mazkur tadqiqotda taqqoslanayotgan tillarda adyektiv iboralar tasnifi uchun morfologik xususiyat asos bo'lishi mumkin. A.I. Smirnitkiyning morfologik tasnifiga ko'ra, KAI ikki cho'qqili frazeologizmdir [8]. Ingliz tilida KAIning ulushi jami komparativistik iboralarning taxminan 40%ni tashkil etadi [2]. Ushbu g'oyani davom ettirib, N.M. Sidiyakova bu turdagi iboralarni sifat, ravish va modal so'zlar ekvivalentlariga ajratadi. A. Makey ta'rificha, sifat ekvivalentli adyektiv iboralar gapda aniqlovchi, kesim vazifasida keladi va morfologik jihatdan sifatga teng munosabatga kirishib, uyushiq bo'lak, yoki bog'lama hosil qilishi mumkin.

Bugungi kun zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda turli tillarning frazeologik tizimlarini qiyosiy o'rganish alohida o'rin tutadi. Frazelogiyaning tizimli o'rganishning bu jihati frazeologiyaning umumiy nazariyasini ishlab chiqish uchun ham, o'rganilayotgan tillarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun ham katta qiziqish uyg'otadi.

Turg'un birikma ko'rinishidagi birliklar ravishlarning ekvivalenti sifatida, garchi o'zida ravishlarning morfologik belgilarini aks ettirmasa-da, harakatning belgisini ifodalab keladi. Tilshunoslikda xususan, ingliz tilshunosligida sifat va ravishning farqi masalasi bahstlab masalalardan [10]. Bu ikki so'z turkumini farqlaydigan asosiy ko'rsatkich – referentdir. Sifat nominativ referentning belgisini ifodalaydi, o'z navbatida, nominativ referentga ikkinchi darajali xususiyatni bag'ishlaydi [3]. Ushbu ikki guruh KAIini kontekstdan tashqarida farqlash muammosi A. V. Kunin tomonidan ham ta'kidlangan [6].

KAI tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan turli xil ishlarni o'rganib chiqqan, N.M. Sedyakovaning struktur tasnifi komparativ iboralarning barcha struktur xususiyatlarini aks ettirmaganligi, muallifning ingliz tilida kichik struktur guruhlarini ko'rsatganligi: 1) as sifat + as + sifat: *as good as new*; 2) as sifat + as + sifat + ot: *as big as a small elephant, as quiet as a church mouse* 3) as sifat + as + ko'makchi + ot: *as pure as the driven snow*; 4) as sifat (ravish) + as + gap: *as solid as the ground we stand on, as clear as (that) two and two make four*; 5) as sifat + as + gerundiyli birikma: *as quick as lightning*, shu sababdan mukammal emas deb xulosa qilish mumkin. Zero, komparativ iboralarning struktur turlarini sanab o'tib, N. M. Sedyakova ularning kichik guruhlarini keltirmaydi. Bizningcha, iboralar xilma-xilligini e'tiborga olib, ushbu tasnifni aniqlashtirish va yanada kengaytirish lozim.

Komparativistik iboralarning kichik struktur guruhlarini ko'rib chiqish jarayonida A. N. Lyubova ushbu hosilalarda "ingliz va boshqa qator g'arbiy-german tillaridagi ayrim iboralar o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega ekanligi e'tiborni tortishi"ni qayd etmadi [7]. E. Bobaev esa

struktur guruhlarni o'rganish natijasida, struktur munosabatlarning struktur-komponent muvofiqliklar va struktur-komponent tafovutlar ko'rinishidagi ikki turini keltirib o'tadi.

Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni qiyosiy-tipologik o'rganish orqali, bir tomondan, tilning mohiyatini ma'lum bir hodisa sifatida aks ettiruvchi universal qonunlarni, ikkinchi tomondan - alohida tillar o'ziga xosligining milliy xususiyatlarini aniqlash hozirgi kunda ayniqsa jadallik bilan rivojlanmoqda [9]. Bunday tadqiqotlarning til va uning tuzilishini o'rganishdagi nazariy, hamda ikki tilli lug'atlar, qiyosiy grammatikalar va boshqalarni yaratishdagi amaliy ahamiyatini hisobga olish maqsadga muvofiq [1]. Tillararo frazeologik universallikdan foydalanish, bir tomondan, nazariy umumlashmalarni yanada yuqori darajada shakllantirish, ikkinchi tomondan, muayyan pragmatik vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – Л.: Просвещение, 1979. – 259 с., Аракин В.Д. Типология объектных словосочетаний в скандинавских языках. // Типология германских литературных языков. – М., 1976. – С. 156-172.
2. Бабаев, Э. Образные сравнительные обороты в современном английском и таджикском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук: – М., 1977. – 16 с.
3. Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка: Учебник. 2-е изд. Перераб. – М.: Высшая школа, 1994. – 381с.
4. Будагов Р.А. О большом «Итальянско-русском фразеологическом словаре», // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология. – М., 1983. – № 6. – С. 66-68.
5. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qısqaşa frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. – 160 b.
6. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения, 1972. – 288 с.
7. Любова А.Н. Адъективные компаративные фразеологизмы в английском, немецком и норвежском языках: общее и специфическое: Дис... канд. филол. наук. – М., 2009. – 207 с.
8. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИЛИЯ, 1956. – 260 с.
9. Федулёнок, Т.Н. Изоморфные и алломорфные отношения английской, немецкой и шведской фразеологии: автореф. ... дис. д-ра. филол. наук: – Северодвинск, 2006. – 34 с.
10. Харитончик З.А. Имена прилагательные в лексико-грамматической системе современного английского языка. – Минск: Высшая школа, 1986. – 96 с.
11. Халмуратов І. Ádebiy shigarmalardagi frazeologiyalıq sóz birlikleriniń pragmatikasi / І. Халмуратов. – Преимущества и проблемы использования достижений отечественной и мировой науки и технологии в сфере иноязычного образования. – 2024. – № 1. – С. 177-9.
12. Maratovich J. N. Journal Homepage:-[www. journalijar. com](http://www.journalijar.com).
13. Худайбергенов, А. А. (2020). О классификационной систематизации фразеологических единиц в каракалпакском языке. Вестник КГУ им. Бердаха. №, 4, 293.
Сапаров С. Ingliz va qoraqolpoq tillarining metaforik xarakterdagi komparativ frazeologik birliklari //Преимущества и проблемы использования достижений отечественной и мировой науки и технологии в сфере иноязычного образования. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 151-153.